

BERUNIY TUMANIDA ZIYORAT TURIZIMI**Matyaqubova Kamolaxon Maqsud qizi****Ma'mun Universiteti Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabasi****Salayev Dilshodbek Jumanazarovich****Ilmiy rahbar: Ma'mun universiteti “Tarix” kafedrası dotsenti, PhD****<https://doi.org/10.5281/zenodo.20136262>**

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumanida joylashgan Sulton Uvays bobo, Shayx Abbos Valiy va chinor bobo Maqbaralarida Ziyorat Turizimi.

Kalit so'zlar: Sulton Uvays bobo Maqbarasi, SHayx Abbos Valiy Maqbarasi, Chinor bobo Maqbarasi.

Kirish.

Ziyora turizmi - turli din vakillarining ziyorat qilish maqsadidagi sayohatlari majmuidir. An'anaga ko'ra, u diniy maqsadli sayohatlarga taaluqlidir. Lekin u ziyoratchi uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan dunyoviy sayohatga ham tegishli bo'lishi mumkin. Ziyorat turizmi insonlar uchun qiyin paytda ruhiy ozuqa beradigan va insonlar diniy ma'rifatni his qilish uchun ma'lum manzillarga sayohat qilishdir. Ziyorat turizmi deganda, odatdagi muhitdan tashqarida bo'lgan muqaddas joylar va diniy markazlarga sayohat qiluvchi sayohatchilarga xizmat ko'rsatish va ularning ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq faoliyat turidir. Hozirgi kunda dunyo bo'yicha har yili 250 mln.dan ortiq kishilar aynan ziyorat qilish maqsadida jahondagi turli ziyoratgohlar va o'zlari uchun muqaddas va ahamiyatli deb bilgan maskanlariga borib, diniy sayohatlarni amalga oshirmoqdalar.

Asosiy qismi: Ziyorat turizmi chet ellik sayyohlar va ayniqsa O'rta Osiyo aholi o'rtasida keng tarqalgan turizm tarmog'idir. Ziyorat turizmi bir nechta turlarga bo'linadi:

1. Muqaddas joylarni ziyorat qilish;
2. Muqaddas joylarni ko'rish va ularning tarixi, madaniyati bilan yaqindan tanishib o'rganish;
3. Ilmiy safar diniy tadqiqotlar bilan shug'ullanuvchilarning muqaddas joylarga borishi.

Ushbu turizm yo'nalishining eng muhim va ahamiyatli muammolaridan biri ziyorat turizmi yo'nalishi bo'yicha yuqori malakali gidlarning yetishmasligi va ularni tayyorlash hisoblanadi. Beruniy tumanida rivojlanishiga Sulton Uvays bobo, Kechirmas ota, Sulton Valiy ota, Chinor bobo, Shayx Abbos Valiy Maqbaralari alohida o'ringa egadir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 9- fevraldagi “O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6165-son farmoniga muvofiq, tashrif buyuruvchilar uchun sharoitlar yaratish, maqsadida yo'llarni tamirlash, uzoq xorij va qo'shni respublikalardan xorijiy turistlarni qabul qilish va ularga qulay shart- sharoitlar yaratish bo'yich “ yo'l xaritasi “ yaratish bo'yicha va boshqalar bo'yicha ko'p ishlar qilindi va hozir sayyohlarga qulaylik yaratish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilmogda.

Beruniy tumani O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalarida o'zining geografik joylashuvi va tarixiy yodgorliklari, xalqining madaniyati, muqaddas ziyorat maskanlari bilan alohida ajralib turadi. Ayniqsa davlat muhofazasiga olinga Sulton Uvays bobo ziyoratgohi. Sulton Uvays (asl ismi Suhayl ibn Omir ibn Rumon ibn Nohiya ibn Murod) Yamanning Qaran qishlog'I Murodiy qabilasi mil.625 yil tug'ilgan. Hazrati Ali va Muoviya askarlari o'rtasidagi Siffin jangida 657 -yil 32 yoshida shahid bo'lgan. Suriyaning Sofa qishlog'ida dafn qilingan.

Sulton Uvays hadislar yig'ish bilan shug'ullanganlar. Uning ramziy qabri XVII asrda Shohabbos hozirgi Beruniyda va ziyoratgohi bunyod qilingan. Olloqulixon shayxga atab katta masjid va alohida 10 ta chillaxona qurdirgan XIX asrda. Majmua to'g'ri to'rtburchak shakilda shimoldan janubga tomon yo'naltirilgan. Sulton bobo maqbarasi, keyinchalik bunyod qilingan. Sulton Uvays bobo ziyoratgohi eshigi oldidagi rivoyatlariga ko'ra, dafn etilgan avliyoning oyog'i ostidan oqib chiquvchi tabarruk buloq va shu buloqdan oziqlangan, muqaddas baliqlar yashaydigan muqaddas hovuz bir paytlar buloqdan va ko'lmakdan oqib chiqqan ariqning quruq to'shagi, u bo'ylab ziyoratchilar bepushtlikdan xalos bo'lish umidida obo (toshdan yasalgan konus shakildagib va piramida shakildagi marosimlar) quradilar. Maqbaradan ikki-uch km uzoqlikda joylashgan obosi bo'lgan tog', mahalliy rivoyatlarga ko'ra, Sulton Uvays bobo 40 kun tiz cho'kib, barcha musulmonlar uchun mag'firat so'ragan va o'sha yerda barcha tishlarini sug'urib tashlagan. Uhud jangida tishhidaan ayrilgan Muhammad s.a.v payg'anbar bilan birdamlik belgisi. Maqbaraga kiraverishda katta hovuz joylashgan. Bu hovuzning suvlaridan ichish ziyoratchining asosiy maqsadidir, sababi xalq e'tiqodiga ko'ra, Sulton Uvays bu joylarda cho'ponlik qilgan, oyog'i bosgan joyda yer osti buloq oqib chiqa boshlagan. Sulton Uvays majmuasiga tepalik tepasida qurilgan chinor bobo mozori ham kiradi. An'anaga ko'ra, ziyoratchilar avval chinor boboni ziyorat qilishadi. Chinor bobo ba'zi manbalarga ko'ra Sulton Uvays piri, ba'zilariga ko'ra muazzini (azon aytuvchi) bo'lgan, degan e'tiqodlar kelib chiqadi. [1]

Yana boshqa ma'lumotlarga ko'ra avliyoning sartaroshi bo'lgan deyilgan. Chinor bobo maqbarasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan 2019-yil 4-oktyabirda Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan va davlat muhofazasiga olingan.

SHayx Abbas Valiy maqbarasi Beruniy tumanidagi tarixiy yodgorlik. shayx Abbas Valiyning asl ismi Mazguriddin ibn Muso ibn Muhammad ibn Abdullo ibn Abbosdir. Bu zotning shajarasi Muhammad s.a.v ning amakisi Abbosga borib taqalishi rivoyat qilinadi. SHayx Abbas Valiy xazratlari milodiy 732-yilda Arabistonda tug'ilganlar. Shayx Abbas 40 yoshida 772-yil Xorazmga Katga onasi bilan ko'chib keladi. Shu joyda yashab qoladi va oila qurib 10 nafar farzand bo'ladi. Shayx Abbas yashagan davr Zardushtiylik dinining hali mavjud bo'lgan davriga to'g'ri keladi. Shayx Abbas Valiy xazratlari butun kuch-g'ayratini zardushtiylik dinida bo'lgan aholining bir qismini Qur'oni karimni, hadisu-sharifni va shariat ahkomlarini tushuntirish va ularning hayotimizdagi ahamiyatini tushuntirish shu orqali hamma insonlarni islom diniga kiritishga sariflagan. SHayx Abbas Valiy xazratlari hadisshunos, fiqhshunos olim, o'tkir salohiyatli qori sifatida dong taratgan. Ul zod karomatli avliyo saxiy va saxovatli inson sifatida ham el-yurt orasida ulkan obru- e'tibor qozongan. Xalqimiz orasida tarqalgan rivoyatlarda aytilishicha ul zod har juma namozini Ka'batullohda o'qigan, doshqozonda taom tayorlab kanbag'al, beva- bechoralarga ulashgan. SHayx Abbas xazratlari nafaqat diniy masalalar, balki hunarmandchilik bilan ham shug'ullanganlar. Bazzozlik (gazlama sotuvchi yoki ip gazlama bilan savdo qilish kasbi) hamda binokor ustachilik kasbi bilan shug'ullanganlar. [2]

Xulosa: Ziyorat turizmi bu insonlarning muqaddas joylarga, qadamjolarga, diniy markazlarga e'tiqod yuzasidan safar qilishidir. Ziyorat turizmi tarixi qadimgi davrlarga borib taqaladi, ota-bobolarimiz ham ziyorat qilish maqsadida safarlarga chiqishganlar. Ziyorat turizmi rivojlanish tarixi bir nechta bosqichlarga bo'lingan.

1. Qadimgi va o'rta asrlar: Diniy e'tiqodlar sababli insonlar uzoq masofalarga, muqaddas shaharlar (Makka, Madina, Quddus va boshqa)ga piyoda yoki ulovlarda oylab yo'l yurib safar qilishganlar. Bu davrda ziyorat qilish odamlarning asosiy maqsadi bo'lgan.
2. O'rta asrlarning Uyg'onish davri; Ziyoratgohlar atrofida infratuzilmalar (karvonsaroylar, masjid va madrasalar) rivojlana boshlagan. Ziyoratchilar nafaqat ibodat qilish balki bilim olish madaniy almashinuv maqsadida ham safar qilishgan.
3. Yangi, eng yangi davr va hozirgi davirda; Ziyorat turizmi faqat diniy ehtiyoj emas, balki iqtisodiy va madaniy soha sifatida rivojlandi. Transport, mehmonxona va boshqa xizmatlarning rivojlanishi ziyoratni ommaviy turizmga aylantirdi.

O'zbekistonda ziyorat turizmi yaxshi rivojlangan, ayniqsa Buxoro, Samarqand, Xiva va Qoraqalpog'istonning Beruniy tumani hududida joylashgan Sulton Uvays Qaraniy va SHayx Abbos Valiy maqbaralarida. Beruniy tumaniga ziyorat turizmi yo'nalishi bo'yicha Beruniy tuman hokimligining bergan ma'lumotlariga qaraganda yiliga xorijlik sayyohlardan 250 dan oshiq, mahalliy aholisi va sayyohlardan 3 mingdan oshiq inson kelar ekan ayniqsa Sulton Uvays Qaraniy ziyoratgohiga juda ko'plab sayyohlar keladi. Sababi bu insonni, uning tarixini bilmaydigan inson menimcha kam bo'lsa kerak. U inson Islom olamida Avliyolar, Avliyosi deb ulug'lanadi bunday deb ulug'lanishining sababi uning tarixi bilan bo'liqdir. Sulton Uvays Qaraniy xazratlarining quyidagi ibratli so'zlari bor;

Ulig'lik istadim, uni tavozi'likdan topdim!
Raislik istadim, uni halol luqmadan topdim!
Fahr istadim, uni faqirlikdan topdim!
Sunnatni istadim, uni taqvodan topdim!
SHon-sharaf istadim, uni qanoatdan topdim!
Rohat istadim, uni parhezdan topdim.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Fariduddin Attor. Tazkirat ul-avliyo. <<Toshkent>>.G'afur G'ulom nashr-2017.
2. Beruniy Avlodlari.<<Qoraqalpog'iston>>. 1998